

INGLIZ TILIDAGI MAQOLALARNI O`QISHNING INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O`RGANISHDA O`QISH KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdumalikova Ma`sudajon Abdunabi qizi
Namangan Davlat Pedagogika Instituti, 1- kurs magistranti
Gmail: abdumalikovamasudajon2121@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o`rganishda ingliz tilidagi maqolalarni o`qishning o`qish ko`nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolalar o`quvchilarga grammatik bilimni rivojlantirish, lug`at boyligini kengaytirish, o`qish strategiyalarini qo`llash, tushunish darajasini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va tilga bo`lgan motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Tadqiqotlardan ko`rinib turibdiki, autentik matnlar (masalan maqolalar) darslikdan farqli ravishda real til kontekstini taqdim etadi va o`qish ko`nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** o`qish ko`nikmalari, maqolalar, EFL (English as a Foreign Language), autentik matnlar, tanqidiy fikrlash, skimming, scanning, inferensiya, summarizing

Annotation

This article analyzes the importance of reading English articles in developing reading skills when learning English as a foreign language. The studies emphasize that reading articles helps learners expand their vocabulary, apply reading strategies, improve comprehension, develop critical thinking, and enhance motivation toward the language. Research shows that authentic texts (such as articles), unlike textbooks, provide real language contexts and contribute to strengthening reading skills.

Key words: reading skills, articles, EFL (English as a Foreign Language), authentic texts, critical thinking, skimming, scanning, inference, summarizing

Аннотация

В данной статье анализируется значение чтения английских статей в развитии навыков чтения при изучении английского языка как иностранного. В исследованиях отмечается, что чтение статей помогает учащимся расширять словарный запас, применять стратегии чтения, повышать уровень понимания, развивать критическое мышление и усиливать мотивацию к изучению языка. Исследования показывают, что аутентичные тексты (например, статьи), в отличие от учебников, представляют реальный языковой контекст и способствуют укреплению навыков чтения.

Ключевые слова: навыки чтения, статьи, EFL (английский как иностранный язык), аутентичные тексты, критическое мышление, скимминг, сканирование, интерпретация, суммирование

Kirish

So‘nggi yillarda ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganishda o‘qish ko‘nikmalarining ahamiyati tilshunoslar, pedagoglar va tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. O‘qish nafaqat asosiy til ko‘nikmalaridan biri, balki lug‘at boyligini kengaytirish, grammatikani o‘zlashtirish, tushunish darajasini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi maqolalarni o‘qish o‘quvchilarga real til kontekstini, zamonaviy leksikani va madaniy qadriyatlarni anglash imkonini beradi. Darsliklardan farqli ravishda, autentik maqolalar o‘quvchilarni haqiqiy til muhitiga olib kiradi va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz tilidagi maqolalarni muntazam o‘qish o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, o‘qish strategiyalarini – skimming, scanning, inferensiya va summarizing kabi usullarni amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchilar matndan kerakli ma‘lumotni tez topish, asosiy g‘oyani aniqlash va matn mazmunini umumlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bunday faoliyat ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni turli mavzularda mustaqil fikr yuritishga undaydi. Shu bois, ingliz tilidagi maqolalarni o‘rganish va o‘qish jarayoniga tatbiq etish ingliz tili ta‘limida muhim o‘rin tutadi. Bu nafaqat o‘qish malakasini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning dunyoqarashini

kengaytiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi va chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Asosiy qism

Autentik matnlar, jumladan maqolalar, o'quvchiga real lingvistik va madaniy kontekstni taqdim etadi. Bu esa tilni faqat darslik bilan emas, balki real hayot bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maqolalar bilan muntazam ishlash o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini sezilarli darajada oshiradi.

Quyida maqolalarni o'qishning foydalari izohlab boriladi:

1. Grammatik bilimni rivojlantirish

Maqolalarda o'quvchilarga real kontekstda to'g'ri gap tuzish strukturalari, fe'l zamonlari, tinish belgilaridan foydalanish va sintaktik tuzilmalar namoyish etiladi, bu esa darsliklarda har doim to'liq yoritilmaydi. Matnlarni qayta-qayta o'qish orqali o'quvchilar grammatik qoidalarni ichki tarzda o'zlashtiradi va tilni to'g'ri ishlatish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, jumla tuzilishini tahlil qilish va o'z yozuvlari bilan solishtirish orqali ular keng tarqalgan xatolarni aniqlab, grammatik aniqlikni oshiradilar. Natijada, yaxshi tuzilgan maqolalar bilan muntazam ishlash o'quvchilarning grammatika bilimini mustahkamlash, tushunish darajasini oshirish va umumiy til malakasini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

2. Lug'at boyligini oshirish

Maqolalar turli xil mavzularni o'z ichiga qamrab oladi: ilm-fan, sport, texnologiya, ekologiya va kundalik hayotdagi voqea-hodisalar. Bu o'quvchilarga yangi so'z va iboralarni kontekst ichida o'rganish imkonini beradi. Autentik matnlar bilan ishlash natijasida o'quvchilar lug'atni tezroq o'zlashtiradi va matnni tushunishda yuqori natijalarga erishadi (Al-Jabari & Al-Omari, 2008).

Lug'atni kontekstda o'rganish nafaqat yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradi, balki ularni amaliy ishlatish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Masalan, o'quvchi maqoladagi yangi bir iborani o'qib, ma'nosini va qanday holatlarda ishlatilishini bilib olsa, keyingi topshiriqlarda, misol uchun sse yozishda yoki muloqot qilgan vaqtda undan foydalanishi mumkin.

3. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish

Maqolalarni o'qish jarayonida o'quvchilar o'qish strategiyalarini qo'llaydi:

1. Skimming (tezkor o'qish): Matnning asosiy g'oyasini tez aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, maqolaning sarlavhasi va birinchi paragrafini o'qib, o'quvchi matn mazmuni haqida umumiy tushuncha hosil qiladi. Bu o'quvchining vaqtni tejash va tez o'qish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Scanning (ma'lumot qidirish): Matnda ma'lum bir fakt yoki raqamni topish uchun ishlatiladi. Masalan, statistik ma'lumotlar, sanalar yoki muallif ismlari qidirish. O'quvchi bu orqali aynan qaysi ma'lumotni tezlik bilan topish ko'nikmasini shakllantiradi.

3. Inferensiya (taxmin qilish): Matnda to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan ma'no yoki xulosalarni chiqarish. Masalan, o'quvchi kontekst asosida yangi so'z ma'nosini taxmin qiladi. O'quvchidagi mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarish va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

4. Summarizing (xulosa chiqarish): Matnning umumiy mazmuni saqlangan holda qisqacha ifodalash va asosiy g'oyalarni ajratib olish. Masalan, o'quvchi maqolani o'qib bo'lgandan so'ng, 3–4 jumla bilan asosiy mazmunni ifodalaydi. Yozma va og'zaki ifodalab bera olish qobiliyatini o'stiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu strategiyalarni muntazam qo'llash o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini oshiradi va o'qish tezligini yaxshilaydi.

4. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Maqolalar muallifning fikri, dalillar va xulosalarni o'z ichiga oladi. O'quvchi bunday matnni o'qiganda nafaqat mazmunni tushunadi, balki muallifning niyatini tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va mustaqil fikrini shakllantiradi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga matnni tahlil qilish, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratish, matnni boshqa manbalar bilan solishtirish va o'z nuqtai nazarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa tilni nafaqat tushunish, balki samarali ishlatish darajasiga olib chiqadi.

5. Motivatsiya va autentik tilga yaqinlashish

Autentik matnlar o'quvchiga tilni haqiqiy hayot kontekstida qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi (Rahimov, 2024).

Masalan, yoshlar texnologiya yoki ekologiya bo'yicha maqolalarni o'qiganda, ular faqat so'zlarni o'rganmaydi, balki global muammolar, ijtimoiy mavzular va ilmiy yondoshuvlar bilan tanishadi. Bu esa til o'rganish jarayonini qiziqarli va amaliy qiladi.

Dars jarayonida maqolalarni qo'llash

Maqola tanlash mezonlari:

- til bilish darajasiga mos bo'lishi;
- mavzusi qiziqarli va amaliy bo'lishi;
- matn uzunligi va murakkabligi o'quvchilar darajasiga mos kelishi;
- matnda yangi so'z va iboralarni tushuntirish imkoniyati bo'lishi.

Dars bosqichlari

1. Pre-reading (o'qishdan oldin): maqola sarlavhasi va muhim so'zlar bilan tanishtirish, oldingi bilimlarni faollashtirish.
2. While-reading (o'qish jarayoni): asosiy g'oyani aniqlash, savollarga javob berish, matnni tahlil qilish.
3. Post-reading (o'qishdan so'ng): mazmunni muhokama qilish, guruhlarda fikr almashish, yozma topshiriq - xulosa yozish.
4. Mustahkamlash: lug'at va iboralarni kontekstda qo'llash, "mind map" yoki diagrammalar orqali tushunchalarni mustahkamlash.

Amaliy tavsiyalar

- haftasiga kamida bitta maqolani darsga qo'shish va uy vazifasi sifatida o'qib kelishni tavsiya qilish.
- o'quvchilarning qiziqishlariga mos mavzular tanlash.
- o'qituvchi strategiyalarni tushuntirib, amaliy mashqlar orqali ularni qo'llashni o'rgatishi kerak.

-matnni o'qigandan so'ng o'quvchilardan qisqacha mazmun, asosiy g'oya va shaxsiy fikrini yozma yoki og'zaki ifodalash talab qilinadi.

Xulosa

Yuqorida berilganlardan xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi maqolalarni o'qish ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday maqolalar o'quvchilarga nafaqat tilni grammatik va leksik jihatdan chuqur o'rganish, balki real til muhitida muloqot qilishni o'rganish imkonini beradi. Maqolalarni o'qish jarayonida o'quvchilar skimming, scanning, inferensiya va summarizing kabi o'qish strategiyalarini amalda qo'llab, o'zining mustaqil o'qish va tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada, ular nafaqat matnni tahlil qilish, balki undagi asosiy g'oyani ajratish, muallifning fikrini anglash va o'z mulohazasini bildirish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, ingliz tilidagi maqolalarni o'qish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, ularni turli ijtimoiy va madaniy mavzularda fikr yuritishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Autentik matnlar bilan ishlash orqali o'quvchilar tilni nafaqat o'rganadi, balki uni amaliy hayotda qo'llashga tayyorlanadi.

Umuman olganda, ingliz tilidagi maqolalarni o'qish — bu nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, madaniyatlararo muloqot qobiliyatini shakllantirishga va zamonaviy dunyoda erkin fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Jabari, M., & Al-Omari, H. (2008). The Effect of Using Authentic Reading Materials on the Reading Comprehension of Ninth-grade EFL Students and on their Attitudes towards Reading. *Jordan Journal of Educational Sciences*, 4(3), 221–234.

Link: <https://jjes.yu.edu.jo/index.php/jjes/article/view/904>

2. Rahimov, I. (2024). The Importance of Using Authentic Materials in EFL Classes. *International Journal of Pedagogics*.

Link: <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-17>